

## GIPOTIREOZ VA GIPERTIREOZ HOLATLARIDA AYOLLARNING QALQONSIMON BEZINING FUNKSIONAL HOLATINI LABORATOR USULLAR BILAN O'RGANISH

Masharipova Hulkar Qabulovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**Annotatsiya:** Mazkur mavzu ayollar orasida tez-tez uchraydigan qalqonsimon bez kasalliklaridan bo'lgan gipotireoz va gipertireozning diagnostikasi va davolash masalalarini qamrab oladi. Qalqonsimon bezning asosiy gormonlari (tiroksin va triyodtironin) miqdorining normadan ortishi yoki kamayishi turli xil klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi. Gipotireozda jismoniy va aqliy faollik pasayadi, vazn ortadi, gipertireozda esa teskari holatlar kuzatiladi. Ushbu holatlarni aniqlashda qon tahlillari, ya'ni laborator tekshiruv usullari muhim o'rin tutadi. Maqolada ayollarda qalqonsimon bez funksiyasining laborator baholanishi, gipotireoz va gipertireoz holatlarining tashhisi va davolashning zamonaviy yondashuvlari yoritiladi. Bu esa tibbiyot xodimlariga ayollarning qalqonsimon bezi kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va samarali davolashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** qalqonsimon bez, gipotireoz, gipertireoz, qon tahlillari, laborator tekshiruvlar, ayollar sog'lig'i.

**Annotation:** this topic covers the issues of diagnosis and treatment of hypothyroidism and hyperthyroidism, which are common thyroid diseases among women. An increase or decrease in the amount of the main hormones of the thyroid gland (Thyroxine and triiodothyronine) from the norm is manifested by various clinical signs. In hypothyroidism, physical and mental activity decreases, weight increases, and in hyperthyroidism, reverse states are observed. When identifying these conditions, blood analysis, that is, laboratory examination methods, plays an important role. The article will highlight the laboratory assessment of thyroid function in women, the diagnosis of cases of hypothyroidism and hyperthyroidism, and modern approaches to treatment. This helps medical personnel to detect and effectively treat female thyroid disorders in a timely manner.

**Keywords:** thyroid, hypothyroidism, hyperthyroidism, blood analysis, laboratory tests, women's health.

Tadqiqot ishining dolzarbligi ayollar orasida qalqonsimon bez kasalliklarining yuqori tarqalishi, gipotireoz va gipertireoz ayollar o'rtasida keng tarqalgan endokrin kasalliklar hisoblanadi. Dunyo bo'yicha taxminan 200 million ayol mazkur patologiyalardan aziyat chekmoqda. Qalqonsimon bez kasalliklarining quyidagi omillarda aks etadi: ayollar sog'lig'i va turmush sifatiga gormonal o'zgarishlar ayollarning aqliy faoliyatini, jismoniy holatini, vazn o'zgarishini va hatto tug'ma nuqsonlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Gipotireoz va gipertireoz holatlarining o'z vaqtida aniqlanishi va samarali davolanishining ahamiyati kasallikni erta tashxislash va to'g'ri davolash ayollar salomatligining yaxshilanishiga yordam beradi. Ayollarda qalqonsimon bez kasalliklarini baholashda laborator usullarning o'rni va ahamiyati esa qon tahlillari orqali qalqonsimon bez gormonlari miqdori aniqlanadi va patologik o'zgarishlar tashxislanadi.

Mavzuning dolzarbligi ayollarda qalqonsimon bez kasalliklari tarqalishining yuqoriligi, ularning salomatlik va turmush sifatiga salbiy ta'siri hamda kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash zaruriyatidan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ayollarda qalqonsimon bezning funksional holatini laborator usullar yordamida o'rganish va gipotireoz hamda gipertireoz holatlarini baholashdan iborat.

Buning uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ayollarda qalqonsimon bezning asosiy gormonlari (tiroksin va triyodtironin) miqdorini qon tahlillari orqali o'rganish.
2. Gipotireoz va gipertireoz holatlarida qalqonsimon bez gormonlari konsentratsiyasini aniqlash.
3. Gipotireoz va gipertireoz holatlarini laborator va klinik belgilar asosida tashxislash.
4. Ayollarda qalqonsimon bez funksiyasi buzilishlarini oldini olish va samarali davolash yo'llarini taklif etish.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari ayollarda qalqonsimon bez funksiyasini kompleks baholash, gipotireoz va gipertireoz kabi patologik holatlarni erta va aniq tashhislash hamda davolash choralari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Qalqonsimon bezning asosiy gormonlari - tiroksin va triyodtironin miqdorini aniqlash orqali bezning funksional holati o'rganiladi. Bu holat ayollarning sog'lig'i va turmush sifatiga ta'sir ko'rsatishi sababli muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Qon tahlillari orqali qalqonsimon bez gormonlari miqdoridagi o'zgarishlarni baholash, shu bilan birga kasallikning klinik ko'rinishi ham o'rganiladi. Bu esa mazkur patologik holatlarni to'g'ri tashxislashga yordam beradi. Ilmiy asoslangan va zamonaviy yondashuvlar asosida ayollarning qalqonsimon bezi kasalliklarini oldini olish va samarali davolash choralari taklif etiladi. Ushbu tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati ayollarning qalqonsimon bezi funksiyasi buzilishlari diagnostikasi va davolash masalalariga yangi ilmiy yondashuvlarni taklif etishi bilan belgilanadi. Qalqonsimon bez funksiyasi buzilishlari - gipotireoz va gipertireoz ayollar orasida keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur holatlarda qalqonsimon bezning asosiy gormonlar (tiroksin va triyodtironin) miqdori normadan ortib yoki kamayib ketadi. Bu esa ayollarning fiziologik hamda psixologik holatiga ta'sir ko'rsatib, ularning turmush sifatini pasaytiradi.

Gipotireoz va gipertireoz holatlarini o'z vaqtida aniqlash va davolash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun qalqonsimon bez funksiyasini baholashda laborator usullar eng samarali vosita hisoblanadi. Qon tahlillari orqali qalqonsimon bezning asosiy gormonlar miqdori, ya'ni gormonal faoliyat darajasi o'rganiladi. Ayollar orasida qalqonsimon bez kasalliklarining yuqori tarqalishi, ularning turmush sifatiga va sog'lig'iga salbiy ta'siri, shuningdek, o'z vaqtida aniqlangan va to'g'ri davolangan holatlarda kasallikning oldini olish imkoniyati mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi. Shu sababli, ayollarda qalqonsimon bez funksiyasini laborator usullar bilan o'rganish va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Qalqonsimon bez funksiyasining buzilishiga olib keluvchi asosiy holatlar - gipotireoz va gipertireozdir. Ayollarda bu kasalliklar tez-tez uchrab turadi. Laborator tekshiruv usullari orqali qalqonsimon bezning funksional holatini, ya'ni gormonlar konsentratsiyasini aniqlash mumkin. Gipotireoz - qalqonsimon bezda yetishmovchilik yuzaga kelishi natijasida qalqonsimon bezning asosiy gormonlari (tiroksin va triyodtironin) miqdori kamayib ketadi. Bunda ayollarda jismoniy va aqliy faollik pasayadi, teri quruqlashadi, vazn ortadi. Tashxis qo'yish va davolash uchun qon tahlillariga murojaat qilinadi. Gipertireoz esa qalqonsimon bez faoliyatining ortishi natijasida yuzaga keladi. Bu holatda aksincha, ayollarda tezlashgan ivirsik, kuchli ishtaha, toza ko'z kosalari kabi belgilar kuzatiladi. Gipertireozda ham qon tahlillari asosiy tashxis vositasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning qalqonsimon bezi funksiyasini baholashda laborator usullar muhim o'rin tutadi. To'g'ri tashxis va o'z vaqtida davolash ayollarda bu kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov U.I., Isroilov R.I. Endokrinologiya. Darslik. - Toshkent, 2018. - 448 b.
2. Yusupov SH.A., Raxmonov R.R. Endokrin kasalliklar. Monografiya. - Toshkent, 2015. - 352 b.

3. Ahmedov R.S., Jo‘rayev S.SH. Qalqonsimon bez kasalliklari. MonografiY. - Toshkent, 2017. - 258 b.
4. Rahimova G.N., Tashpulatova F.K. EndokrinologiY. Darslik. - Toshkent, 2019. - 384 b.
5. Mavlonov I.R., Xolmirzayev F.A. Endokrin kasalliklar va ular bilan bog‘liq holatlar. Qo‘llanma. - Toshkent, 2016. - 184 b.
6. Abdullayev A.A., Toshtemirova D.A. Qalqonsimon bez kasalliklari: epidemiologiya, patogenez va tashxis. // O‘zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi axborotnomasi. - 2020. - 2-son. - B. 67-72.
7. Axmedov U.A., Fayzullayev N.B. Ayollarda qalqonsimon bez kasalliklarining tashxisi va davolash. // Endokrinologiya va metabolik kasalliklar jurnali. - 2019. - 4-son. - B. 42-49.
8. Khurbanova N. et al. The state of antioxidant system of mitochondrial fraction of the hepatocyte in early terms of ischemic stroke in white rats //Интернаука. – 2017. – №. 12-2. – С. 51-53. Navruzovna K. N. et al. Generation of reactive oxygen species in the mitochondrial fraction of hepatocytes in the early stages of experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 60-62.
9. Navruzovna K. N. et al. Biochemical changes in hepatocyte subcellular fractions in experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 57-59.
10. Рахметова М. Р. и др. Особенности диагностики и лечения эндокринного бесплодия //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 722-728.